



UDK:811.523

Shahboz Sh.ZARMASOV,

PhD, ToshDO TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: shakhbozzarmasov1993@mail.ru, ORCID: 0009-0009-5859-4482

Abdurashid M.TO'YCHIYEV,

ToshDO TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: rashidaka8771@gmail.com, ORCID: 0009-0006-1449-412X

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Respublika sud ekspertiza markazi Sud lingvistik-psixologik ekspertizasi bo'limi mudiri N.Nishanova taqrizi asosida

DEFAMATION AND INSULT AS SUBJECTS OF FORENSIC LINGUISTIC EXAMINATION

Annotation

This article examines the linguistic nature of defamation and discredit (discreditation) within the framework of forensic linguistic expertise, which is one of the most pressing fields in modern linguistics. The paper analyzes the role of linguistic criteria in evaluating offenses related to the protection of an individual's honor, dignity, and business reputation. The research highlights the semantic and pragmatic boundaries between insult and discreditation, international legal criteria (such as the "Sullivan Test"), and the principles of distinguishing between factual statements and opinions during the expertise process. The author's analyzes discreditation as a distinct speech strategy and substantiates its specific characteristics as an object of forensic linguistic inquiry.

Key words: Forensic linguistic expertise, insult, discredit, discreditation, speech strategy, business reputation, fact, opinion, linguocriminalistics.

ДИСКРЕДИТАЦИЯ КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПО ОСКОРБЛЕНИЯМ

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвистическая природа клеветы и дискредитации в рамках судебно-лингвистической экспертизы, являющейся одной из наиболее актуальных областей современной лингвистики. Анализируется роль лингвистических критериев при оценке правонарушений, связанных с защитой чести, достоинства и деловой репутации личности. В исследовании освещаются семантические и прагматические границы между оскорблением и дискредитацией, международно-правовые критерии (такие как «тест Салливана»), а также принципы разграничения фактических утверждений и мнений в процессе экспертизы. Автор рассматривает дискредитацию как особую речевую стратегию и обосновывает её специфические характеристики как объекта судебно-лингвистического исследования.

Ключевые слова: Судебно-лингвистическая экспертиза, оскорбление, клевета, дискредитация, речевая стратегия, деловая репутация, факт, мнение, лингвокриминалистика.

OBRO'SIZLANTIRISH HAQORAT BO'YICHA LINGVISTIK EKSPERTIZA OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri – sud-lingvistik ekspertizasida obro'sizlantirish (diskreditatsiya) va haqorat tushunchalarining lingvistik tabiatini tadqiq etish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada shaxsning sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni baholashda lingvistik mezonlarning o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida haqorat va obro'sizlantirish tushunchalarining semantik va pragmatik chegaralari, xalqaro huquq amaliyotidagi mezonlar (jumladan, "Sallivan testi") hamda ekspertiza jarayonida fakt va shaxsiy mulohazani farqlash tamoyillari yoritib berilgan. Mualliflar obro'sizlantirishni alohida nutqiy strategiya sifatida tahlil qilib, uning sud-lingvistik ekspertiza obyekt sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini dalilaydi.

Kalit so'zlar: Sud-lingvistik ekspertizasi, haqorat, obro'sizlantirish, diskreditatsiya, nutqiy strategiya, ishchanlik obro'si, fakt, mulohaza, lingvokriminalistika, yurislingvistika.

Kirish. Keyingi davrlarda jahon ilm-fanida yangi yo'nalishlar va fanlararo tadqiqot sohalari shakllanib bormoqda. XX asr boshlarida tilshunoslik fani tizimli va struktur yondashuvlar asosida tilning ichki qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, XX asr oxirlariga kelib, u boshqa fanlar bilan integratsiyalashib, inson va til o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tadqiq etishga yo'naltirildi. Shu davr mobaynida ilm-fanda kompyuter lingvistikasi, sotsiolingvistika, paralingvistika va lingvokulturologiya kabi yangi yo'nalishlar, shuningdek, tilshunoslik va huquqshunoslik kesishmasida sud ekspertizasi bilan bog'liq sohalar shakllandi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi natijasida sud amaliyotida sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'siga tajovuz bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni ortib bormoqda.

Bunday holatlar matn va nutq birliklarini lingvistik jihatdan baholashga, xususan, ularda haqorat mazmunining mavjud yoki mavjud emasligini lingvistik ekspertiza tadqiqotlari doirasida aniqlashga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Natijada XXI asr boshlaridan shaxsni haqorat qilish, uning sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish bilan bog'liq ish materiallari asosida sud-lingvistik ekspertiza metodologiyasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini huquqiy jihatdan himoya qilish bilan bog'liq ishlar toifasining mazmunan yaxlit ekani sud-lingvistik ekspertiza rivojlanishining ilk bosqichlaridayoq lingvistik ekspertlar tomonidan anglab yetilgan.

Dastlabki tadqiqotlar rus tilshunoslari Y.L.Ziyangirova va Y.A.Grishenkova tadqiqotlarida yoritilgan bo'lsa, lingvistik ekspertizaning shakllanishi va amaliyotga

tatbiqini A.N.Baranov, K.I.Brinev, I.V.Jarkov, Y.N.Bondarenko [6] ishlarida tavsiflanadi. Shuningdek, haqorat bilan bog'liq holatlarning lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan tasnifi N.D.Golev, Y.I.Galyashina [8; 7] tomonidan amalga oshirildi.

O'zbek tilshunosligida yuridik til va huquqiy masalalarga oid ilmiy nazariyalar A.Saidov, M.Mirhamidov, S.Hasanov, X.Hayitov, N.Najmiddinova tadqiqotlarida bayon etilgan. Xususan, Sh.Ko'chimov sud-lingvistik ekspertizasi haqida quyidagi fikrni bildiradi: "Tergov-sudlov ishlari jarayonida huquqiy (og'zaki yoki yozma) matnning lingvistik xususiyatlarini aniqlash, matnda yashiringan tub ma'noni ochib berish va uning to'g'ri aks etganligini belgilash, mualliflik huquqi, ko'chirmachilik va matn muallifini identifikatsiya qilish, sudlov obyektida davlatga qarshi, diniy ekstremizm yoki terrorizmga chorlovchi fikrlarning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash, bahsli va munozarali matnlarda inson sha'ni va qadr-qimmatini, ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir qiluvchi jihatlarni aniqlash kabi maqsadlarda o'tkaziladigan ekspertiza sud lingvistik ekspertiza deb yuritiladi" [9].

Bugungi kunda amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini yerga urish, kamsitish, tahqirlash va haqoratlash bilan bog'liq bo'lib, shaxsni obro'sizlantirish masalasida mazkur tadqiqotlar tarkibida qisman munosabat bildirilgan. Faqatgina N.Najmiddinovaning "O'zbek tilidagi "shaxsni obro'sizlantirish" mazmunli ifodalarning lingvistik ekspertizasi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini qayd etish mumkin [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Global axborotlashuv va raqamli kommunikatsiyaning shiddatli rivojlanishi natijasida insonning so'z erkinligi va shaxs daxlsizligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash huquqshunoslik va tilshunoslik fanlari oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'siga tajovuz qilish holatlari ortib borayotgani ushbu harakatlarni lingvistik jihatdan obyektiv baholash mexanizmini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Sud-lingvistik ekspertiza jarayonida insonning sha'ni va qadr-qimmatini yerga urish, kamsitish, tahqirlash yoki haqoratlash mazmunining mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash matnning semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlarini huquqiy mezonlar bilan uyg'un holda kompleks tahlil qilish zaruratiga aylantiradi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda sud amaliyotida "haqorat", "tuhmat" va "obro'sizlantirish" tushunchalarini o'zaro farqlashda muayyan qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Quyida obro'sizlantirishni nutqiy strategiya va lingvistik ekspertiza obyektini sifatida tadqiq etish, uning haqoratdan farqli jihatlarni aniqlash hamda xalqaro tajribadagi (masalan, "Sullivan testi") mezonlarni tahlil qilish orqali milliy ekspertiza metodologiyasiga aloqador masalalar yoritiladi. Shuningdek, tilshunos-ekspert tomonidan matnning semantik va pragmatik xususiyatlarini huquqiy normalar asosida baholash tamoyillari ko'rib chiqiladi.

Umumiy mazmunda, haqorat bo'yicha lingvistik ekspertiza tadqiqotlari oldiga hal etiladigan asosiy vazifa sifatida inson sha'ni va qadr-qimmatini yerga urish bilan bog'liq huquqbuzarlik holatlarini tadqiq va tahlil qilish qo'yilar ekan, sud-lingvistik ekspertizasining muhim obyektini hisoblanuvchi obro'sizlantirish masalasiga ham diqqat qaratish zarur.

Ma'lumki, jahon huquq amaliyotida "diskreditatsiya" degan nom bilan qo'llanuvchi obro'sizlantirish atama (tushuncha)si so'z erkinligi va shaxs daxlsizligi o'rtasidagi muvozanatni saqlaydigan vosita sifatida talqin qilinadi.

Turli mamlakatlar qonunchiligida mazkur tushuncha bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Ishchanlik obro'sini himoya qilish (G'arb mamlakatlari (AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi) huquq tizimida diskreditatsiya, ko'pincha, "defamation") tuhmata va haqoratni o'z ichiga olgan umumiy tushuncha) doirasida ko'riladi). Fuqarolik huquqida esa biror shaxs yoki OAV biror kompaniya haqida asossiz salbiy ma'lumot tarqatib, uning mijozlarini kamaytirsa yoki aksiyalari narxini tushirsa, bu "tijoriy diskreditatsiya" deb baholanadi,

2. Davlat organlari va hokimiyatni diskreditatsiya qilish (Bu yo'nalish ko'proq kontinental huquq tizimiga ega davlatlar (Fransiya, Germaniya, MDH davlatlari)da uchraydi). Buning huquqiy mohiyati davlat tuzilmalari (hukumat, sud, armiya)ga nisbatan xalqning ishonchini ataylab pasaytirishga qaratilgan harakatlar uchun javobgarlik belgilashdan iborat.

3. Saylov jarayonlari va siyosiy diskreditatsiya (AQSH va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda saylov kompaniyalari davrida "negative campaigning" (salbiy targ'ibot) doirasida raqibni diskreditatsiya qilishning huquqiy chegaralari qat'iy belgilangan). Bunda nomzod haqida "yomon niyat" bilan yolg'on ma'lumot tarqalsa, bu sud orqali jazolanadi.

Jahon sud-huquq amaliyotida diskreditatsiyani isbotlash mezonlari tajribasida "Sullivan testi" (AQSH amaliyotidan kelib chiqqan) yoki shunga o'xshash mezonlarga tayaniladi:

1. Yolg'onchilik: ma'lumotning haqiqatga to'g'ri kelmasligi.

2. Zarar: ma'lumot natijasida shaxsning obro'siga yoki daromadiga haqiqatdan zarar yetganligi.

3. Tarqatish: ma'lumotning uchinchi shaxslarga (ommaga) yetib borganligi.

4. Qasd: muallifning maqsadi, aynan, zarar yetkazish bo'lganligi (ayniqsa, mansabdor shaxslarga nisbatan) [3].

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqilsa, diskreditatsiya, ya'ni so'z erkinligi va shaxs daxlsizligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarur.

Lingvist-ekspert, aynan, o'sha chegarani (qayerda tanqid tugab, qayerda obro'sizlantirish boshlanishini) aniqlaydi, shunga ko'ra, sud-lingvistik ekspertizasida diskreditatsiya nutqiy strategiya sifatida o'rganiladi.

Diskreditatsiyaning lug'atlardagi ta'rifi: (lot. dis – inkor etish, credo – ishonch) – shaxsning, tashkilotning yoki davlat institutining nufuzini, obro'-e'tiborini to'kish hamda unga nisbatan jamoatchilikdagi ishonchni yo'qotishga qaratilgan maqsadli harakatdir [7].

Obro'sizlantirish huquqiy va lingvistik jihatdan haqoratdan biroz farq qiladi. Ekspertiza jarayonida ushbu ikki tushuncha quyidagicha ajratiladi:

1. Haqorat – shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini odobsiz (beadab) shaklda kamsitishdir. Bu yerda asosiy e'tibor gapning qanchalik qo'polligiga qaratiladi.

2. Obro'sizlantirish – shaxsiga nisbatan ishonchni yo'qotish, uning ijtimoiy nufuzini tushirish hamda unga nisbatan jamoatchilikda salbiy fikr shakllantirishga qaratilgan maqsadli faoliyat. Bu jarayonda adasatga qaratilgan nutq birliklari "odobsiz shakl"da bo'lishi shart emas.

Obro'sizlantirish qachon ekspertiza obyektini bo'ladi?

U quyidagi holatlarda lingvistik ekspertiza doirasida o'rganiladi:

- ishchanlik obro'sini himoya qilishda: tarqatilgan ma'lumot shaxsning kasbiy sifatlariga (masalan, "u saviyasiz rahbar", "u sifatsiz mahsulot sotadi") qaratilgan bo'lsa;

- davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga nisbatan: nutqiy harakat davlat tuzilmalariga bo'lgan ishonchni pasaytirishni maqsad qilgan bo'lsa;

- siyosiy diskursda: saylovoldi targ'ibotlarida raqibni yomonotliq qilish holatlari tahlil qilinganda.

Lingvist-ekspert (mutaxassis) aniqlaydigan holatlar.

Obro'sizlantirish bo'yicha lingvistik ekspertiza tadqiqotlari o'tkazilayotganda mutaxassis quyidagi savollarga javob izlaydi:

Salbiy (negativ) axborot bormi? Shaxs yoki tashkilotning nufuziga salbiy ta'sir qiluvchi ma'lumotlar mavjudligini aniqlash.

Ma'lumot shakli qanday? Fakt (isbotlash mumkin bo'lgan ma'lumot) shaklidami yoki shaxsiy fikr (mulohaza) shaklidami?

Nutqiy strategiya. Nutq egasi tinglovchida obyektga nisbatan nafrat yoki ishonchsizlik uyg'otishni maqsad qilganmi?

Qayd etish kerakki, har qanday haqorat obro'sizlantirishning bir qismi bo'lishi mumkin. Masalan, nutqda "ahmoq" so'zining ishlatilishi – bu kamsitish. Agar "bu odam o'z vazifasiga noloyiq, u poraxo'r" deb (asossiz) aytilsa (ayniqsa, yozilsa) – obro'sizlantirish (ya, ehtimol, tuhmat) hisoblanishi mumkin. Shu asosda, obro'sizlantirish ayblash mazmunidagi fikr natijasidir. Lingvist-ekspert ayblovg'a nisbatan faqat mazmunan yondashadi, uning asoslarini qidirmaydi, balki lingvistik nuqtayi nazardan e'tibor qaratadi.

Shu o'rinda, obro'sizlantirish va tuhmat o'rtasidagi farqni ham keltirib o'tish zarur, chunki tuhmat lingvistik ekspertiza obyektini hisoblanmaydi.

Sud-lingvistik ekspertizasida obro'sizlantirish va tuhmat tushunchalari bir-biriga juda yaqin bo'lsa-da, ularning huquqiy tabiati va lingvistik ko'rsatkichlari orasida jiddiy farqlar mavjud [6].

1. Tuhmat: bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan dalillarni (uydirmalarni) tarqatishdir. Bunda asosan shaxsning qonunni buzganligi yoki axloqsizligi haqida yolg'on ma'lumot beriladi.

2. Obro'sizlantirish: shaxs, tashkilot yoki tuzilmaning nufuzini tushirishga qaratilgan umumiy nutqiy strategiya (yondashuv). Bunda nafaqat yolg'on faktlar, balki haqiqiy faktlarni bo'rttirib ko'rsatish, salbiy baho berish yoki shubha ostiga olish mazmuni ham yotadi.

Lingvistik nuqtayi nazardan tuhmatda gap har doim dalil shaklida bo'ladi. Uni tekshirish va haqiqat yoki yolg'onligini isbotlash mumkin. Masalan, "U (falanchi) falon sanada davlat budjetidan 100 million so'm o'g'irlagan".

Obro'sizlantirishda esa gap, ko'pincha, mulohaza, shubha yoki ritorik so'roq shaklida bo'ladi. Uni tekshirish qiyin, chunki u subyektiv munosabatga asoslanadi. Masalan, "Bu rahbarning korrupsiyaga moyilligi borgan o'xshaydi, uning boshqaruvida mantiq ko'rmayapman" (Bu nutq egasining fikri).

Xulosa. Shaxsni obro'sizlantirish va haqorat qilish bilan bog'liq lingvistik ekspertiza tahlili yuzasidan quyidagicha xulosalar chiqarildi:

Atamalarini mazmunan farqlash: Haqorat – shaxsning sha'ni vaqadr-qimmatini "odobsiz shakl"da yerga urish, kamsitish va tahqirlash bo'lsa, obro'sizlantirish (diskreditatsiya) esa jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan ijtimoiy ishonchni yo'qotishga qaratilgan tizimli nutqiy strategiyadir. Obro'sizlantirishda nutq birliklari har doim ham vulgar (qo'pol) shaklda bo'lmasligi mumkin, bu esa uni tahlil qilishda yuqori malakani talab etadi.

2. Lingvistik ekspertiza tadqiqotining o'rganish obyektini belgilab olish: Sud-lingvistik ekspertizasi jarayonida lingvist-ekspert axborotning haqiqatga mosligini (tuhmat masalasini) tekshirmaydi, balki matndagi ayblov mazmuni, uning ifodalanish shakli (fakt yoki mulohaza) va nutqiy maqsadini aniqlaydi.

3. Mezonlarning ahamiyati: Jahon tajribasidagi "Sullivan testi" kabi mezonlar (yolg'onchilik, zarar, tarqatish, qasd) milliy ekspertiza amaliyotida so'z erkinligi va shaxslar huquqlarini himoya qilish o'rtasidagi nozik chegarani aniqlashda muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi.

4. Metodik zarurat: Obro'sizlantirish bo'yicha yagona lingvistik mezonlarning ishlab chiqilishi sud-tergov organlari tomonidan qo'yilayotgan savollarga aniq javob berish hamda ijtimoiy muloqotda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'RBQ-249-son qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 73-son qarori
3. New York Times Co. v. Sullivan, 376 U.S. 254 (1964); Lewis, A. Make No Law: The Sullivan Case and the First Amendment / Anthony Lewis. – New York: Random House, 1991. – 269 p.
4. Hopkins, W. W. Actual Malice: Twenty-five Years after New York Times Co. v. Sullivan / W. Wat Hopkins. – New York: Praeger, 1989. – 215 p.
5. Кузнецов С.А., Оленев С.В., Плотникова А.М., Санников А.В. Методические рекомендации по назначению и производству лингвистических экспертиз. – Москва: ЭКЦ МВД России. – 2010.
6. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. – Москва: «Флинта», 2007 (2-ое изд: 2013).
7. Yuridik atamalar qomusiy lug'ati. – Toshkent: "Sharq", 2013.
8. Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом освещении // Юрислингвистика: проблемы и перспективы: Межвуз. сб. научных трудов. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 1999. – С. 7.
9. O'rozov J. O'zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 9.
10. Ko'chimov Sh.N. Sud lingvistik ekspertizasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 12 b.
11. Najmiddinova N. O'zbek tilidagi "shaxsni obro'sizlantirish" mazmunli ifodalarning lingvistik ekspertizasi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Qo'qon, 2025. – 125 b.